



YANGI O'ZBEK ADABIYOTI: MUNOSABAT VA TAHLILLAR TIZIMI

Qodirov Abdulazizbek Luqmonjon o'g'li,
Qo'qon universiteti Andijon filiali
O'zbek va rus filologiyasi kafedrasida
dotsenti v.b., f.f.b.f.d (PhD)

MAQOLA HAQIDA
Qabul qilindi: 12-yanvar 2026-yil
Tasdiqlandi: 15-yanvar 2026-yil
Jurnal soni: 17
Maqola raqami: 63
DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v17i.1413>
KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS
yangi o'zbek adabiyoti, adabiy munosabatlar, badiiy tahlil, adabiy jarayon, estetik qarashlar, adabiy tanqid.

ANNOTATSIYA
Ushbu maqolada yangi o'zbek adabiyotining shakllanishi va rivojlanish jarayoni adabiy munosabatlar hamda tahliliy yondashuvlar tizimi asosida o'rganiladi. Mustaqillik davri adabiyotida yuzaga kelgan estetik qarashlar, ijodiy yo'nalishlar va badiiy tafakkurdagi yangilanishlar muallif-asar-o'quvchi munosabatlari kontekstida tahlil qilinadi. Maqolada zamonaviy o'zbek adabiyotida janrlar evolyutsiyasi, obrazlar tizimi va badiiy ifoda vositalarining o'zgarishi masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek, adabiy tanqid va tahlil metodlarining bugungi adabiy jarayondagi o'rnini va ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqotda tarixiy-adabiy, qiyosiy va strukturaviy tahlil usullaridan foydalaniladi. Mazkur maqola yangi o'zbek adabiyotini ilmiy jihatdan tizimli o'rganishga xizmat qiladi.

Kirish. Yangi o'zbek adabiyoti mustaqillik davrida yuzaga kelgan madaniy va ijtimoiy o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning rivojlanishini tushunishda adabiy munosabatlar va tahlillar tizimi muhim ahamiyatga ega. Bugungi adabiyot nafaqat badiiy obrazlar va janrlar orqali shakllanadi, balki muallif, asar va o'quvchi o'rtasidagi murakkab aloqalar doirasida ham tahlil qilinadi. Shu nuqtai nazardan, yangi o'zbek adabiyotini o'rganish adabiy jarayonning ichki va tashqi omillarini, badiiy ifoda vositalarini va tanqidiy yondashuvlarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. XX asrning boshlarida o'zbek adiblari, olimlari adabiy jarayonni sinchkovlik bilan kuzatib, adabiyot va ijodkorlar haqida turli janrlarda ilmiy-tanqidiy asarlar yaratdilar, ham klassik adabiyot, ham yangi o'zbek adabiyoti, ham folklor masalalari bilan shug'ullanib, ko'plab tadqiqotlar yaratdilar.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Dilmurod Quronov ham o'z zamondoshlari kabi adabiy jarayonni faol kuzatib bordi. Yangi o'zbek adabiyotining jonkuyar tadqiqotchisi sifatida bir qancha tadqiqotlarni amalga oshirdi. Uning yangi o'zbek adabiyotga munosabati quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

1. Jadid adabiyoti masalalariga munosabat.
2. Sho'ro davri adabiyotiga munosabat.
3. Hozirgi adabiy jarayonga munosabat.

Olim "O'tgan kunlar": reseptiv muammolar. Birinchi maqola, "O'tgan kunlar": reseptiv muammolar. Ikkinchi maqola, "O'tgan kunlar"da xon va xonlik haqida, "Jadid adabiyotida tarix konsepsiyasi", "Hamzaning poetik izlanishlari xususida", "Mukammallik yo'lida", "Ilk avval ko'zimni ishq bilan ochdim..." singari maqolalarida jadid adabiyoti namoyondalarining asarlari, ularda ilgari surilgan yetakchi g'oyalar xususida so'z yuritadi. Olim qaysi bir davr haqida yozmasin, eng avvalo, o'sha davrning ijtimoiy-siyosiy ahvoli, davrning yetakchi tamoyillarini nazarda o'tkazadi. Munaqqid Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Abdurauf Fitrat, Mahmudxo'ja Behbudiy, Hamza Hakimzoda Niyoziy kabi jadid adabiyotining ustunlari shaxsiyatidagi umumiylikni ularning ma'rifatiga, adabiyotga, san'atga, millat taqdiri va kelajagiga, ona Turkistonga muhabbatida ko'radi. Bular tanqidchining o'z shaxsiyatidagi ezgu xislatlar bilan uyg'unlashadi. Shu sabab Dilmurod Quronov ular shaxsiyatini yanada teranroq anglaydi, jadidlarni qiynagan og'riqlar munaqqidni ham azoblaydi, ularni qiynagan savollarga javob qidiradi. Maqolalarda yuqorida sanab o'tilgan buyuk shaxslarga simpatiya yaqqol sezilib turadi va bu muhabbat tanqidchi ijodining pafosini yanada oshiradi. D.Quronov ijodkorlarning poetik va so'z qo'llash mahorati, asarlarida ijodkor shaxsiyatining qanchalik aks etishini diqqat bilan kuzatadi. Ijodkorning hayoti va ijodi, ijtimoiy hamda siyosiy faoliyati, uning shaxsiyatiga xos jihatlarni hisobga olib tekshirishga harakat qiladi. Buning natijasida munaqqid asarlarini o'qiganimizda poetik matn mohiyati bilan birga

asar muallifining ichki dunyosi, hislari, kechinmalari bilan ham yaqindan tanishish mumkin bo'ladi.

Natijalar. Olimning hamzashunoslik borasidagi tadqiqotlari ham ahamiyatga molik masalalardandir. Olim Hamza ijodini shartli ravishda ikki qismga bo'ladi. U ijodini endi boshlagan vaqtlarda mumtoz adabiyotimiz an'alarini davom ettirgan bo'lsa, ijodining keyingi davrlarida ma'rifatparvarlik ruhida asarlar yaratadi. Buyuk italiyalik shoir Danteni adabiyotshunoslar "O'rta asrlarning eng oxirgi, Uyg'onish davrining esa birinchi shoiri" deb ataydilar. Xuddi shu kabi Hamzani ham mumtoz o'zbek adabiyoti va yangi o'zbek she'riyat o'rtasidagi ko'pri deb yuritsak xato bo'lmaydi. Olim Hamzaning mumtoz adabiyot ruhida she'rlari haqida fikr yuritib, uning "Devoni Nihoni" to'plamidagi ayrim she'rlarni tahlilga tortadi. Ulardagi mumtoz adabiyot tamoyillari va shoirning poetik izlanishlarining uyg'unlashuviga diqqat qaratadi. Olim Hamzaning "Bordim nigorim uyig'a bir kechasi astog'ina" misralari bilan boshlanuvchi g'azalini tahlil qilar ekan, bir qaraganda, mumtoz adabiyotimizda keng tarqalgan "savol-u javob" san'ati asosida yozilgan she'rlarga o'xshashini, ammo uni mumtoz she'rlardan farqli tomoni borligini aytadi. Ushbu g'azalda oshiq bilan yor o'rtasidagi dialogni tasvirlash emas, mazkur dialog orqali hikoya qilish maqsadi yetakchilik qiladi. Buning natijasida dialog go'yoki rivojlanish usuliga aylanadi, ko'z oldimizda voqea gavdalandiriladi – she'r o'zida sujetlilik xususiyatini kasb etadi.

Olim Hamzaning "Devoni Nihoni"da poetik izlanishlari haqida gapirar ekan, har qancha yangilikka intilish kuchli bo'lmasin, she'rlar mumtoz adabiyot qonuniyatlaridan chetga chiqilmaganini ta'kidlaydi va "agar Hamza o'zining izlanishlarida misralar soni, uzunligi yo soni, qofiyalanish tartibi kabi shakl tomonlari bilangina cheklanib, e'tibori shu tomongagina bog'lanib qolganida, samarali natijalar olishi mahol bo'lur edi. Muhimi, Hamza shakl bobidagi izlanishlarini muayyan mazmun ifodasiga xizmat qildiradi, ijodiy tajribasi mazmunni yorqinroq ifodalashga intilgani" ¹ ni aytib o'tadi. Olimning Hamza ijodiy eksperimentlari xususidagi fikrlari mumtoz va yangi adabiyot chegaralarini belgilashda, davrlashtirish masalasida alohida ahamiyat kasb etadi.

Dilmurod Quronovning "O'tkan kunlar" romani yuzasidan e'lon qilgan maqolalari ham adabiyotshunoslikda alohida o'rinda ega. Olim romanni tahliliga kirishar ekan, avvalo, mazmun unsurlariga e'tibor qaratadi. "O'tkan kunlar"da xon va xonlik haqida" ² maqolasida u adibning berilgan voqealar va asardagi qahramonlar zamiriga qanday ma'nolarni yuklashga uringanligini aniqlashga harakat qiladi. Tarixdan ma'lumki, 13 yoshida Qo'qon xonligi taxtiga o'tqazilgan Xudoyorxon qaynotasi Musulmonqul yordamida davlatni idora qiladi. Asarda ham bu o'z aksini topgan bo'lsada, adib xonning qaynotasiga qarshi kayfiyatini, uning ta'siridan chiqib ketish uchun ma'lum tadbirlar o'ylab, arqonni uzun tashlab qo'yg'anligini uning harakatlari vositasida

¹ Куронов Д. Мутулаа ва идрок машклари. – Т.: Академнашр, 2013.

² Quronov D. Adabiyot va b. haqida. – Toshkent: Akademnashr, 2019. – B.21.

kitobxonga “maxfiy” tarzda yetkazadi. Bu haqida olim maqolada “– Hamman ham O’tabboyni aytingiz, ablah bir odam ekan, – dedi, – meni siylamag’anda ham sizni rioya qilsa kerak edi”. Albatta, ko’p o’tmay Musulmonqulning hokimiyatdan chetlashtirilishi xonning bu tarz befarq o’tirishida “arqonni uzun tashlash” xiyalasi bor edi deyishga ham izn beradi. Biroq, mabodo shunday bo’lganida ham, qayin otasida shubha uyg’onmasin uchun u o’zini har doimgidek – “qo’g’irchoq” maqomida tutishi kerak bo’lar edi. Otabek xon huzurida mahkamaga tortilganida ham tashabbus butkul Musulmonqul qo’lida bo’ladi, Xudoyor esa – “taxt ustiga qo’ndirilgan jonlik haykal” maqomida. Bu haykalga faqat mahkama nihoyasida – Musulmonqul endigina o’zining jon dushmani bilib turgan mahkumiga “oqsoqlanib, o’z qo’li bilan zarrin to’n kiyguzar ekan” jon kiritadi: “Xudoyorxon ham yirtqich qayin otasining changalidan qutilganini tabrik qilg’andek Otabekka kulib boqdi”³ degan o’rinlarga diqqat qiladi. Chindan ham asarda “qipchoqlar qirg’ini” voqealari berilmaguniga qadar hech bir o’rinda xonning Musulmonqulga adovati, qipchoqlarga qarshi nafрати ochiq oydin berilmaydi. Agar adib shunday yo’ldan borganida mutolaa davomida kitobxon zerikib qolishi va voqealarni oldindan to’g’ri tahrin qila olishi mumkin bo’lib qolardi. Buning natijasida esa mutolaaning estetik zavqiga putur yetgan bo’lar edi. Bu o’rindagi ijodkor mahorati tahsinga sazovor bo’lib, zukko kitobxon xonning harakatlari orqali vaziyatni anglay boradi. Bu mayda detallarga e’tibor qilgan olimning maqolasi esa asarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Muhokama. Olimning fikricha, “qipchoq qirg’ini” ham tag mohiyat jihatidan manfaatlar to’qnashuvining bir ko’rinishidan boshqa emas. Olim Otabek tilidan otasiga bergan savolni ritorik so’roq gap deb ataydi. Chunki “Yirtqichlarning bu qirg’indan qanday muddolari hosil bo’larkin?” savolning tagida “bu ish hech bir foydasiz-ku, bekor qon to’kilgani qoladi, xolos!” qabilidagi ishonch-e’tiroz yotadi. Ma’lumki, asarning qator o’rinlarida Otabekning aql-zakovati, farosati va vaziyatni to’g’ri baholay olishiga misol bo’la oluvchi o’rinlar keltirilgan. Uning qirg’in tashkilotchilarining “bittasi mingboshi bo’lmoqchi, ikkinchisi Normuhammad o’rnig’a minmakchi, uchinchisi yana bir shaharni o’ziga qaram qilmoqchi...” bo’lganligini anglamasligi mumkin emas edi. U otasining qirg’inga aloqasi yo’qligini, otaning asl vaziyatini bilgach, donishmand otaning fikrlari bilan ham qiziqadi. Olim, asarda Yusufbek hoji obraziga katta ahamiyat berilganligini ta’kidlar ekan, uning gap-so’ziga alohida qiymat beradi. “Ko’b umrini shu yurtning tinchlig’i va fuqaroning osoyishi uchun sarf qilgan” Yusufbek hojining qipchoqlar qirg’ini tashkilotchilarining maqsadi haqidagi nutqi tahlilida “xon ersa Musulmonqulga bo’lgan adovatini qipchoqni qirib alamdanda chiqmoqchi” jumlasini olim e’tiborini tortadi. Chunki, uning fikricha, Xudoyorxonning qirg’indan murodi faqatgina alamin chiqarish emas. Bunga asardagi qator o’rinlarni keltirishimiz mumkin. Olim bunga dalil sifatida xat detalini keltiradiki, bu xonning maqsadi yanada yaxshiroq anglash imkonini beradi. Xonning Toshkent beklariga yuborilgan yorlig’i “Biz Turkiston mamlakatining xoni o’z qalamravimiz va saltanatimiz uchun qipchoq toifasini muzir deb bildik” deb boshlanganidan ham yuqoridagi mazmunni tushunish mumkin.

Asarda xon juda ko’p o’rinda ishtirok etmasada, boshqalarning nutqida uning shaxsiyati va masadi bo’y ko’rsata boradi. Uning xarakteri va sajiyasi haqida alohida to’xtab o’tilmagan bo’lsada, asardagi ayrim o’rinlar bizga xon haqida mutloq tasavvur hosil qilishga imkon beradi. Olim Niyoz qushbegining qirg’in rejasini tuzilgan majlisdagi gaplari misolida buni ko’rsatib berishga harakat qiladi. “Men xonni Toshkanddan jo’natish oldida uning xoli vaqtini topib, bu fikrimni bir daraja arz qilib o’tkan edim, bu fikrim xonga juda ma’qul tushkan bo’lsa kerak, so’zimni e’tibor bilan tinglab turdi va javobida: “Yaxshi. O’ylashib, tadbirlari bilan menga fikringizni yozing, men ham o’ylab ko’rman”, dedi. Menga qolsa bu to’g’rida bizdan xabar kutib xonning uyquini ham kelmay yotqandir: bizga faqat ishning o’naqayini topib xondan tasdiq etdirishgina qolgan”. Olim Niyoz qushbegi boshqaruvni, hukumronlikning tabiatini, hokimiyatni o’z qo’lida saqlash va

kuchaytirish shartlarini juda yaxshi bilishini, Xudoyorxon yosh bo’lgani bilan xon saroyidagi oshkoru pinxon kurashlar qozonida obdon qaynagan, shu bois qushbegining taklifiga munosabatini oshkor etmasdan, yana arqonni uzun tashlaganligini tahlil qilish orqali uning mavjud vaziyatga to’g’ri baho bera olish, vaziyat natijalarini oldindan tahmin qilsada, ehtiyotkorlikni qo’ldan bermasligini ko’rsatadi.

Olim Niyoz qushbegi nutqiga diqqat qilar ekan, bu orqali muallif xarakteristikasi bildirilmagan obrazning ichki kechinmalarini uning “tilidan tutib olish”ga urinadi. “Haqiqatan ham, qushbegi qora chopon og’aynilar haqida qayg’urayotgandek esa-da, aslida bu gaplari zamirida manfaati shaxsiya yotadi. Niyoz qushbegi Musulmonqulni ag’darish ishiga faol bosh qo’shgan-u, to’ntarish natijalari ko’nglidagidek bo’lmagan: “Normuhammadning ra’yini deb, hamma ixtiyori o’z qo’limizda bo’lgani holda, O’tabboyni mingboshi belgublab yuborduq... Bu ham o’zimizning eng katta xatolarimizdin. Men o’sha kundan beri o’z-o’zimdanda bo’g’ilib yuriyman: Musulmonqulning iti bo’lmasa, o’zimizdan mingboshi bo’larliq odam qurib qoluvdimi, deymen. Yo’q, og’alar, temirni qizig’ida suqib qolish kerak!” Ko’ramizki, qushbegini mingboshi masnadiga minolmagani o’rtaydi”⁴. Olim xon va xonlik masalalarini yozuvchi asarga kiritishidan murodiga to’xtalar ekan, romandagi Xudoyorxon obrazi, asar syujetidagi ijtimoiy-tarixiy chiziq voqealari Abdulla Qodiriyning hukmdor va davlat boshqaruvi to’g’risidagi badiiy konsepsiyasini ifoda etishini ta’kidlaydi. “Ushbu konsepsiyaga ko’ra, birinchidan, turli davrlardagi hokimiyat tizimining mavjudligi va amal qilishida umumiy qonuniyatlar kuzatiladi; ikkinchidan, shaxsiy, guruhiy hamda umum manfaatlari nisbati va o’zaro munosabatlarining to’g’ri belgilanishi tizimning barqarorligini belgilaydi; uchinchidan, “adolatli xon” (podshoh) haqidagi orzu ham, “xon hazratlari jamiyat hayotdagi nohaqliku adolatsizliklardan bexabar, uni atrofidagi maslahatchilar chalg’itadi” qabilidagi qarashlar ham cho’pchakdan boshqa emasdir”⁵. Asardagi xon va xonlik masalalari yozuvchining hokimiyat haqidagi badiiy konsepsiyasini ifodalasa, maqola xulosasidagi fikrlarni olimning ijtimoiy-siyosiy qarashlarining yorqin ifodasi deyish mumkin. Yuqorida keltirilgan tahlil maqsadi haqidagi fikrlarimizning davomi sifatida, maqoladan kelib chiqib aytish mumkinki, D.Quronov uchun badiiy asar qatrlariga yashiringan ma’nolar, asarning g’oyasi, oddiy kitobxon ko’ra olmagan tilsimlar muhim bo’lib, o’tkir munaqqid nigohi bilan ularni kashf etishga harakat qiladi.

Xulosa. Mavjud voqelik va badiiy asarlarga yashiringan sirlarning aniqlanishidagi o’ziga xosliklar yana bir uslub unsuri tarzida yuzaga chiqadi. Adabiyotshunos olim yoki munaqqid poetik matnni tadqiq qilar ekan, adabiyotning xalq hayot tarzi, orzu-umidlari va davrning eng yetakchi tamoyillari, millat ruhini haqiqatga muvofiq aks ettirishi masalasiga e’tibor qaratadi. Masalan, D.Quronov “Mukammallik yo’lida” maqolasida Abdulla Qodiriyga xos bo’lgan “mukammallik” haqida so’z yuritadi. Otabek hamda qutidor o’rtasidagi suhbatda Otabek “necha yoshga kirdingiz bek?” degan savolga “yigirma to’rtga ...” degan javobni beradi. Dastlabki nashrlarda matn davomidagi nutqini qutidor “eslay olmasga haqlisiz” degan jumla bilan davom ettiradi. Keyinchalik Qodiriy mazkur jumlaning “eslay olmassiz” deya o’zgartirganini kuzatamiz. Bu jumlagi e’tibor qaratar ekan, olim o’zgartirishlar sababini quyidagicha izohlaydi: “Zero, avvalgi holda “haqlisiz” deyilishi bilan qutidor tomonidan suhbatdoshiga marhamat qilinayotgandek, haq berilayotgandek, kechirib qo’yilayotgandek tuyulsa, keyingisida eslay olmaslikning tabiiyligi ta’kidlanadi – yoshi ulug’, ko’pni ko’rgan odam sifatida qutidor yosh suhbatdoshini hijolatdan chiqarishga intilgani ko’riladi. Bu bilan adib qutidor siyratiga muhim bir chizgi tortishga erishadi”⁶. Bundan ko’rinadiki, olim uslubida badiiy matn zamiridagi barcha zamonlar uchun ahamiyatli bo’lgan nuqtalarga diqqat qaratish va mukammal tahlil orqali o’quvchiga ma’naviy ozuqa berishga intilish ustuvorlik qiladi. Shu bilan birgalikda xalqning orzu-intilishlari hamda tasvirlanayotgan davrning yetakchi tamoyillarini adolatli aks ettirishi uslub masalasiga ijtimoiy hodisa sifatida qarash imkoniyatini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Қуронов Д. Мутулаа ва идрок машқлари. – Т.: Академнашр, 2013.
2. Қуронов Д. Адabiyot va b. haqida. – Toshkent : Akademnashr, 2019. – B.21.

3. Axmedov.N.A. Bayon qilish va individual uslub masalasi. – Myunxen: Globe, 2020.

4. Ахмедова Ш.Ўзбек адабий танқидчилиги жанрлари. – Тошкент: Фан, 2008. – 180 б.

³ Quronov D. Adabiyot va b. haqida. – Toshkent : Akademnashr, 2019. – B.21.

⁴ Quronov D. Adabiyot va b. Haqida – Toshkent : Akademnashr, 2019. – B.22.

⁵ Quronov D. Adabiyot va b. haqida. – Toshkent : Akademnashr, 2019. – B.23.

⁶ Д.Қуронов. Мутулаа ва идрок машқлари. – Тошкент: Академнашр. 2013. – Б.15.

5. Ахмедова Ш., Қаҳрамонов Қ. Чин олимлик саодати. – Тошкент: Наврӯз. 2015. – 112 б.

6. Ахмедова Ш. Н. Ўзбек адабий танқидининг жанрий таркиби. Филол. фан.д-ри...дисс.– Тошкент, 2010. - 220 б.

7. Ахмедова Ш. Юмор жиглари.– Тошкент: Фан, 1998. – 52 б.

8. Ахмедова Ш., Қодирова Н. Ёниқ қалб ҳарорати. – Бухоро: Дурдона, 2012. – 64 б.